

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TURIZM SALOHIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Jiyemuratov Asadbek Seytmurat uli  
Rajabova Mardona Azimjon qizi  
Amidullaev Bibaris Turimbay uli**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti talabalari

E-mail: [bibarisamidullaev316@gmail.com](mailto:bibarisamidullaev316@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy obidalari, turfa xil iqlimi bilan butun dunyo sayohatchilarining e'tiborini tortmoqda. Qadimiy madaniyat va me'moriy yodgorliklarga boy Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon kabi shaharlar O'zbekistonda turizmni rivojlantirish, uni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu shaharlarda butun dunyo ahlini hayratga soladigan qadimiy tarixiy obidalar bor.

**Kalit so'zlar:** Buyuk Ipak yo'li, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon, camping.

## TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT

### ABSTRACT

Nowadays, the Republic of Uzbekistan attracts the attention of travelers from all over the world with its many historical and architectural monuments and diverse climate. Cities such as Samarkand, Bukhara, Khiva, Shahrisabz, Margilon, which are rich in ancient cultural and architectural monuments, are important for the development of tourism in Uzbekistan and its promotion to a new level. These cities have ancient historical monuments that amaze the people of the whole world.

**Keywords:** Great Silk Road, Samarkand, Bukhara, Khiva, Shahrisabz, Margilan, camping

Bugungi kunda O'zbekistonda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib, ularni saqlab qolish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa O'zbekiston ziyoratgohlari hamda tarixiy madaniy yodgorliklarini turizm sohalari bilan uyg'unlashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ular salohiyatidan Yanada samarali

foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbekistonda jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko‘plab tarixiy va madaniy arxitektura yodgorliklari mavjud, ushbu beba ho merosimizning bugungi kunda 140 ta ob’ekti YUNESKO tomonidan muhofazaga olingan va tarixiy ob’ektlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jumladan YUNESKO ning ‘Jahon merosi’ ro‘yxatiga Xivadagi Ichan Qal’a 1990 yil, Buxoroning tarixiy markazi 1993 yil, Shahrisabzning tarixiy markazi 2000 yilda, Samarqand shahri 2001 yilda ushbu ro‘yxatga kiritilgan.

O‘zbekistonda tashkil qilingan asosiy sayyohlik yo‘nalishlari qatoriga “Buyuk ipak yo‘li” sayyohlik yo‘nalishi ham kiradi. 1994-yili Toshkent va Samarqandda Jahon sayyohlik tashkilotining “Ipak yo‘li” loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro yig‘ilishi o‘tkazilib, unda O‘zbekiston mazkur qadimiy yo‘nalishning markazi deb belgilandi. 1995-yil 2-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Buyuk ipak yo‘li”ni qayta tiklashda O‘zbekistonning ishtirokini kuchaytirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida farmon qabul qildi. Shu asosda “O‘zbek turizm” milliy kompaniyasi “Ipak yo‘li” o‘tgan tarixiy manzillar bo‘ylab 200 dan ortiq yo‘nalishlar ishlab chiqdi. Ular asosiy sayyohlik zonalarini qamrab oladi va Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva hamda Farg‘ona vodiysi shaharlari bo‘ylab o‘tadi. “Buyuk Ipak yo‘li”ning tarmoqlari hisoblangan Andijon, Namangan, Farg‘ona, Termiz, Nukus shaharlari orqali o‘tuvchi yo‘nalish “Farg‘ona oltin halqasi” Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon, Namangan shaharlarini o‘z ichiga oladi. “Buyuk Ipak yo‘li” sayyohlik yo‘nalishida turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga namunali xizmat ko‘rsatish maqsadida yangi shinam mehmonxonalar, kempinglar, motellar, umumi ovqatlanish va dam olish maskanlari bunyod etilmoqda. Shu sababli bu yo‘nalishlar bo‘ylab safar qiluvchilar soni yil sayin ortib bormoqda.

O‘zbekiston tarixiy va madaniy obidalarga boy turistik mamlakatlardan biridir. Bundan tashqari uning tabiiy va ekoturistik salohiyatidan turizm maqsadlarida hududlarda etarlicha foydalanilmayapti. Buning uchun xorij tajribasi asosida ekoturizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz ekoturizm resurslariga boy davlatlar katorida turadi va Markaziy Osiyoning, dunyo mamlakatlarining o‘zaro aloqalarini geografik jihatdan bog‘lovchi davlatdir. Shu sababli ichki va xalqaro turistik oqim va ekoturistik oqim ham bizda kuchayishining juda katta imkoniyatlari hamda salohiyatlari bor.

O‘zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat ma’naviyatimiz, ilm-fan, madaniyat, ma’rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni jalb qilish, biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini xal qilishga balki, shu bilan birga iqtisodiy masalalarni, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, aholini yangi ish joylari bilan ta’minlash, mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘sishiga katta xissa qo‘shadi.

Mamlakatimiz ekoturistik resurs va imkoniyatlarga juda boy. Turoperatorlik firmalar tomonidan “Toshkent-Chorvoq-Toshkent”, “Toshkent-Bildirsoy-Chimyon-Toshkent”, “Toshkent-Zomin-Toshkent”, “Toshkent-Aydarko‘l-Toshkent” kabi marshrutlarda o‘tkazilgan ekoturlar, cho‘l hududlariga tuyada sayr qilish, nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e’tibor va e’tiroflariga sazovor bo‘lmoqda. Tahlillarga ko‘ra, ekoturizm xizmatlarini ko‘rsatayotgan turoperatorlik firmalari asosan, Chimyon-Chorvoq rekreatsiya zonasidagi faoliyat ko‘rsatmoqda. Biroq, O‘zbekistonning Hisor, Bobotog‘, Ko‘hitangtog‘ (Surxondaryo), Chaqchar (Qashqadaryo), Nurota (Navoiy-Jizzax), Zarafshon (Samarqand), Turkiston (Jizzax), Oloy (Farg‘ona), Qurama, Chotqol (Namangan) tog‘lari, Qizilqum cho‘lidagi qoldiq tog‘lar, Qizilqum cho‘li, Orol dengizining qurigan tubi va qoldiq sho‘r ko‘llar, Ustyurt platosi, Borsa kelmas sho‘rxogi, Mingbuloq botig‘i, Aydarko‘l, Dengizko‘l, Amudaryo va Sirdaryo sohillaridagi to‘qayzorlar, Muruntov kareri va tabiatning noyob yodgorliklari bo‘ylab majmuali va mavzuli ekoturlar tashkil etish to‘laqonli yo‘lga qo‘yilmagan. O‘zbekistonda o‘ziga xos joziba va takrorlanmas manzaralarga boy bo‘lgan speleoturizm (g‘or turizmi) katta imkoniyatlarga ega. Ayni paytda O‘zbekistonda 500dan ortiq g‘orlar bo‘lib, ma’lumotlarga ko‘ra, yetarli turistik infratuzilmaga ega bo‘limganligi sababli ularning birortasiga ham ekoturlar tashkil etilmayapti. O‘zbekiston cho‘llari va tekislik hudlarida barxan, dyuna, to‘qay, sho‘rxok, taqir, quduqlarni, shuningdek mahalliy cho‘ponlar yashash tarzini namoyon qiluvchi o‘tovlarni tomosha qilishga qaratilgan tuya sayrini tashkil etish katta imkoniyatlarga ega.

Xulasa qilib aytadigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi juda katta turizm salohiyatiga ega bo‘lib, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham tarixiy-madaniy ob’ektlar, muqaddas qadamjolarga e’tibor kuchayib, ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Egamberdiev F., Eshiniyazov B. A. TURIZMNIŃ RAWAJLANIWINDAĞI GEOGRAFIYALÍQ KÓRSETKISHLER //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 21. – C. 247-250.
2. Egamberdiev F. B., ulı Eshiniyazov B. A. TURIZM TARAWLARINIŃ GEOGRAFIYALÍQ TIYKARLARÍ //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 21. – C. 243-246.
3. Iskenderov A. B., ulı Eshiniyazov B. A. ÓZBEKSTAN AYMAĞINDA TURIZMNIŃ JAŇA TÚRLERINIŃ RAWAJLANÍWÍ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 217-220.

4. Iskenderov A. B., ulı Eshiniyazov B. A. TURIZMDI RAWAJLANDÍRWDA TURIZM-REKREACIYALÍQ RESURSLARDÍN ÁHMIYETI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 212-216.
5. Iskenderov A.B., Saliev E.P., Eshiniyazov.B.A. GEOGRAFIYA SABAQLARINDA TURIZM TARAWLARINIŃ ÚYRENILIWI//Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy oıqitishning dolzarb masalalari. – 2023. C.125-128.
6. Iskenderov A.B., Uzaqbaev Q.K., Sharibaev A.m., Djanabaev I.B. “Turizm hám rekreaciyalıq geografiya” páninen oqıw-metodikalıq qollanba. Nókis- 2019, 128 bet.
7. ulı Eshiniyazov B. A., ulı Saliyev E. P., Egamberdiev F. B. TURIZM TARAWLARINIŃ ILIMIY TIYKARLARINIŃ ÚYRENILIWI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 821-825.
8. Eshiniyazov B.A. ÓZBEKSTAN EKONOMIKALIQ HÁM SOCİALLIQ GEOGRAFIYASIN ÚYRENİWDE TURIZMDI RAWAJLANDIRIW MÁSELELERİ//Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy oıqitishning dolzarb masalalari. – 2023. C.128- 131.